Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 4, Issue 3, 2025 Traditional Medicine

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TABOBATI YO‘NALISHIDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISHDAGI AYRIM XUQUQIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

***Jamshid Abdullayevich Mirraximov***
O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Xalq tabobati Respublika ilmiy-amaliy markazi, Direktor, tibbiyot fanlari doktori
https://orcid.org/0009-0001-7777-9695

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss3.2025.528

**Kalit so‘zlar**
Xalq tabobati, normativ-huquqiy baza, tibbiy ixtisoslik, profilaktika, xalq tabobati markazi.

**Annotatsiya**
Maqolada O‘zbekistonda xalq tabobatini rivojlantirish va tartibga solish chora-tadbirlari, qonunchilik asoslari hamda sog‘liqni saqlash tizimida uning o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ruxsat etilmagan usullarni qo‘llashning oldini olish va aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish uchun javobgarlik belgilangani qayd etilgan.

**Havola uchun**
Mirraximov, J. A. SOME LEGAL PROBLEMS IN THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES IN THE DIRECTION OF TRADITIONAL MEDICINE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR SOLUTIONS. Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine, 4(3). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss3.2025.528

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda aholi sog‘lig‘ini saqlash va yaxshilashga, kasalliklarning oldini olish hamda ularni davolashga, shuningdek odamlarning sog‘lig‘i va farovonligini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Asrlar davomida tabib ulamolarimiz, xalqimiz tomonidan to‘plangan, kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolashda foydalaniladigan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan emperik bilimlar yig‘indisi xalq tabobati sifatida e’tirof etilgan. Hozirgi paytda mamlakatimizda xalq tabobati ko‘pgina rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda juda ommalashib bormoqda. Odamlarni tabiblarga murojaat etishlarining asosiy sabablaridan biri, ularga to‘lanadigan xizmat haqining xamyonbopligidadir.

Xalq tabobati faoliyatini tartibga solish, to‘plangan tajriba va salohiyatdan samarali foydalanish, ushbu sohadagi normativ-huquqiy bazani shakllantirish hamda xalq tabobatining usullari va yutuqlaridan samarali va xavfsiz foydalanish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3968-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning 1-bandi bilan xalq tabobati aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning qo‘shimcha usuli sifatida e’tirof etildi. Bunda xalq tabobati usulida tibbiy xizmat ko‘rsatmoqchi bo‘lgan shaxslar uchun tibbiy ta’lim ma’lumot talab qilinmaydigan bo‘ldi.

Qaror bilan respublika tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida xalq tabobati bo‘yicha maxsus o‘quv sikli joriy etildi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida xalq tabobati kafedrasi va "Xalq tabobati" yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish kursini tashkil qilindi, "Xalq tabobati" tibbiy ixtisoslik sifatida e’tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4668-son qarori bilan Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Tibbiy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarni xalq tabobati usullaridan foydalangan xolda tibbiy xizmat ko‘rsatishga o‘qitish uchun O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2023 yil 3 apreldagi 7-son buyrug‘i bilan “Xalq tabobatini rivojlantirish markazlariga tinglovchilarni qabul qilish va bitiruvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 7 aprelda 3426 raqam bilan ro‘yxatga olindi.

Shu bilan birga «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida sog‘liqni saqlash amaliyotida tashxis qo‘yish va davolashning faqat qo‘llashga ruxsat etilgan usullaridan foydalanilishi belgilangan bo‘lsada, qonunchilikda tashxis qo‘yish va davolashning ruxsat etilmagan usullarini qo‘llagan holda tibbiy yordam ko‘rsatganlik uchun javobgarlik choralari nazarda tutilmagan. Natijada, ayrim shaxslar moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo‘lish evaziga ruxsat etilmagan usullarni, shu jumladan xalq tabobatiga aloqador bo‘lmagan usullarni qo‘llagan holda kasalliklarga tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini ko‘rsatib, insonlarning sog‘lig‘i va hayotiga xavf tug‘dirmoqda. Shuningdek, o‘z xizmatlarini Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali biror bir cheklovlarsiz reklama qilishmoqda. Shuning uchun 05.11.2024 yildagi O‘RQ-991-sonli O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ishlab chiqildi va qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan fuqarolarga tibbiy tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini xalq tabobati sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan ko‘rsatganlik, shuningdek xizmatlarni xalq tabobati yo‘nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo‘llagan holda moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo‘lish evaziga ko‘rsatganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi. Shu bilan birga, mazkur xizmatlarni omma oldida targ‘ib qilganlik uchun ma’muriy javobgarlik o‘rnatildi. Bundan tashqari «Reklama to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni xalq tabobati yo‘nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo‘llagan holda fuqarolarga tibbiy tashxis qo‘yish va ularni davolash xizmatlarini reklama qilishni taqiqlovchi norma bilan to‘ldirildi.

Ushbu Qonun xalq tabobati sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan aholiga xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek xalq tabobati yo‘nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo‘llagan holda xizmatlar ko‘rsatish hollarining oldini olish orqali fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlashni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil etib chiqilsa xalq tabobati ixtisosligi boshqa ixtisosliklardan ko‘ra universal xarakterga ega. Xalq tabobati tibbiy ixtisoslik sifatida e’tirof etilgan bo‘lsada, biroq mazkur ixtisoslik bo‘yicha diagnostika va davolash standartlari yetarli darajada shakillantirilmagan. Xalq tabobatini universal xarakterdagi tibbiy ixtisoslik ekanligini e’tirof etish uchun ushbu ixtisoslik bo‘yicha tibbiy xizmat ko‘rsatishning standartlarini to‘liq shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish talab etiladi.